

**TIBBIY TEXNIKUMLARDA AMALIYOTGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM:
TAJRIBA VA NATIJALARNING YECHIMI****Kasimova D.A****Turdieva S.B***Jamoat sog‘lig‘ini saqlash maktabi,
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti*

Muammoning dolzarbligi: O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish, ayniqsa, sog‘liqni saqlash sohasida faoliyat yurituvchi kadrlarni tayyorlash jarayonini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligi, tibbiy xizmat sifati va aholining sog‘lom turmush tarzini ta’minlash darajasi bevosita tibbiyot xodimlarining, jumladan, o‘rta bo‘g‘in - hamshiralar tayyorgarligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois tibbiyot texnikumlarida bo‘lajak hamshiralarni professional tayyorlash jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi: Tibbiyot texnikumlarida bo‘lajak hamshiralarni professional tayyorlash jarayonining zamonaviy pedagogik asoslarini tahlil qilish, samarali ta’lim texnologiyalarini aniqlash va ushbu jarayonni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Toshkent shahar Shayxontohur tuman 2 son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi.

Tadqiqot predmeti: 2 son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumidagi bo‘lajak hamshiralarni professional tayyorlash jarayonining zamonaviy pedagogik asoslari, metodlari va texnologiyalari.

Tadqiqot usullari: Nazariy tahlil (ilmiy manbalar, konsepsiyalar, me‘yoriy hujjatlarni o‘rganish); Kuzatish va suhbat metodi (o‘qituvchi va talabalarning fikrini o‘rganish); Tajriba-sinov ishlari (innovatsion metodlarni amaliyotda sinab ko‘rish); Anketalash va so‘rovnoma o‘tkazish; Statistik tahlil (natijalarni solishtirish va umumlashtirish).

Tadqiqot natijalarining amaliy natijalari: So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash tizimi tubdan yangilanib, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi hamda “Sog‘liqni saqlash tizimini 2022–2026 yillarda rivojlantirish konsepsiyasi”da tibbiyot sohasida o‘qitish jarayonini modernizatsiya qilish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va raqamli ta’lim muhitini yaratish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ayniqsa, o‘rta tibbiyot ta’lim muassasalari faoliyatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish, o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish hamda amaliy

mashg'ulotlarni simulyatsion uslublar asosida tashkil etish zaruriyati yuzaga kelgan. Tadqiqot natijalari tibbiyot ta'limi tizimida bo'lajak hamshiralarni tayyorlash jarayonining ilmiy-metodik asoslarini boyitadi. Ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar tibbiyot texnikumlari, hamshiralik ishi kafedralari va o'quv-metodik markazlar faoliyatida qo'llanishi mumkin. Shuningdek, natijalar "Tibbiy pedagogika", "Kasbiy ta'lim metodikasi", "Hamshiralik ishi" fanlarini o'qitishda amaliy yordam beradi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim,

kredit-modul tizimi, amaliyotga integratsiyalashgan o'qitish, AKTdan foydalanish, simulyatsion va trening markazlarida mashg'ulotlar o'tkazish hamshiralarning amaliy ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar - interaktiv metodlar, reflektiv o'qitish, klinik holatlar asosida o'qitish, OSCE baholash tizimi - talabalarning mustaqil fikrlashi, klinik vaziyatni tahlil qilish, muloqot qilish va qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Петрова Н.Г., Додонова И.В. Замонавий ҳамширалик таълимида компетентликка асосланган ёндашув // Тиббий таълим ва касбий ривожланиш. 2023. № 2(52). 45–58-б.
2. ЖССТ (WHO). Дунё ҳамширачилигининг ҳолати – 2022: таълим, иш ўринлари ва лидерликка инвестиция. Женева: Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти, 2022. 156 б.
3. Иванова С.М., Кравченко Н.А. Ўрта касбий таълим тизимида тиббий ҳамшираларни тайёрлашнинг долзарб муаммолари // Ўрта касбий таълим. 2024. № 1(337). 22–28-б.
4. Романова Е.В. Ҳамширалик таълимида инновацион технологиялар: ҳолати ва истиқболлари // Таълимда инновациялар. 2023. № 11. 67–79-б.
5. Смирнова А.П., Волкова Т.И. Тиббий техникумларда амалиётга йўналтирилган таълим: тажриба ва натижалар // Россия ва хорижда касбий таълим. 2024. № 1(53). 112–120-б.
6. Козлова Л.В. Тиббий таълимда анъанавий ва инновацион ўқитиш усуллари // Касбий таълим педагогикаси. 2023. № 3. 34–42-б.
7. Белова Н.И., Сергеева В.П. Тиббий ҳамшираларни тайёрлашда назария ва амалиёт интеграцияси // Ҳамширалик иши. 2023. № 4. 28–32-б.
8. Морозова Е.А. Тиббий техникум битирувчиларининг касбий мослашуви: муаммолар ва ечимлар // Тиббий ҳамшира. 2024. № 2. 15–19-б.